

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.I.17.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Qo'lyozma huquqida
UDK:368.03:330.322-047.43(575.1)

OSTONOV MUHRIDDIN BAHRIDDIN O'G'LI

SUG'URTA KOMPANIYALARI INVESTITSION FAOLIYATI
SAMARADORLIGINI BAHOLASH

08.00.07 – “Moliya, pul muomalasi va kredit”

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy)
ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan
DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:
Zoirov Laziz Subxanovich,
iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Toshkent shahri – 2025-yil

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. SUG‘URTA KOMPANIYALARI INVESTITSION FAOLIYATINING ILMIY-NAZARIY VA USLUBIY ASOSLARI	11
1.1. Sug‘urta tashkilotlari investitsion faoliyatining iqtisodiy mohiyati va o‘ziga xos xususiyatlari	11
1.2. Sug‘urta kompaniyalarining investitsion salohiyati va unga ta’sir etuvchi omillar.....	26
1.3. Rivojlangan mamlakatlarda sug‘urta kompaniyalari investitsion faoliyatini amalga oshirishning zamonaviy holati	35
Birinchi bob bo‘yicha xulosalar	64
II BOB. SUG‘URTA TASHKILOTLARI INVESTITSIYA FAOLIYATI AMALIYOTI TAHLILI	66
2.1. O‘zbekistonda sug‘urta kompaniyalari investitsion faoliyatini amalga oshirishning zamonaviy holati va tahlili	66
2.2. Umumiy sug‘urta tarmog‘i va hayotni sug‘urta qilish sohasining investitsion salohiyatini qiyosiy baholash	76
2.3. Sug‘urta kompaniyalari investitsion faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish va tartibga solish.....	92
Ikkinchi bob bo‘yicha xulosalar	104
III BOB. YANGI O‘ZBEKISTONDA SUG‘URTA KOMPANIYALARINING INVESTITSION FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI	106
3.1. Sug‘urta kompaniyalari investitsion faoliyatining samaradorlik ko‘rsatkichlari va ularning tavsifi	106
3.2. Sug‘urta kompaniyalarining investitsion faoliyatini rivojlantirishning strategik yo‘nalishlari	130
Uchinchi bob bo‘yicha xulosalar.....	146
XULOSA.....	148
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI	152

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotining barqarorligi va izchil taraqqiy etishini ta'minlashda sug'urta kompaniyalarining roli sezilarli darajada oshmoqda. Sug'urtalovchilar o'nlab trillion dollarni tashkil etuvchi aktivlarini dunyo iqtisodiyotining turli sohalariga investitsiya qilish orqali global iqtisodiy o'sishga salmoqli hissa qo'shmoqda. Xususan, "2024-yilda Yevropa sug'urtalovchilarining investitsiya portfeli 15624,3 mlrd yevroni tashkil etgan bo'lib, 47,2 foizi davlat va korporativ obligatsiyalarga joylashtirilgan"¹. Shuningdek, 2024-yilda AQShning hayotni va sog'liqni sug'urtalash bo'yicha kompaniyalarining investitsiya faoliyatidan olgan daromadlari 215 mlrd AQSh dollarini tashkil etgan². Bu o'z navbatida, sug'urta kompaniyalarining investitsion faoliyati samaradorligini yanada oshirish, uning jahon iqtisodiyoti rivojlanishiga ta'sirini kuchaytirish dolzarb ahamiyat kasb etishini namoyon etadi. Sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash ularning kreditorlar hamda sug'urtalanuvchilar oldidagi majburiyatlarini o'z vaqtida bajarishning muqobil variantlarini izlab topish, sug'urta kompaniyalari investitsiya faoliyatini diversifikatsiyalash orqali moliyaviy barqarorligini ta'minlashga doir strategiyalarni qayta ko'rib chiqish va takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Jahonda sug'urta bozorini rivojlantirish asnosida sug'urtalovchilarning investitsion faoliyati samaradorligini oshirish hamda moliyaviy barqarorligini ta'minlash borasidagi ilmiy izlanishlarga katta e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, sug'urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligini baholash va ta'minlashda tashqi hamda ichki omillarning tasnifiy xususiyatlarini belgilash, sug'urta bozorida zamonaviy moliyaviy instrumentlarni joriy etish, sug'urta xizmatlarini diversifikatsiyalash, moliyaviy barqarorlikni monitoring qilish mexanizmini ishlab chiqish, sug'urtalovchilarning kapitallashuvi jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadigan

¹ European Insurance in Figures. 2024 data. https://www.eiopa.europa.eu/tools-and-data/eurobarometer-2024-consumer-trends-insurance-and-pension-services_en

² Annual Report on the Insurance Industry (September 2024). Federal Insurance Office, U.S. Department of the Treasury Completed pursuant to Title V of the Dodd-Frank Wall Street Reform and Consumer Protection Act. September 2024.

sabablarni o'rganish va ularning ichki investitsiya resurslari bozoridagi rolini oshirish, sug'urta kompaniyalari faoliyati samaradorligi va moliyaviy barqarorligini baholashni tashkil etish bilan bog'liq ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Lekin, mazkur tadqiqotlarda sug'urta kompaniyalari investitsion faoliyatini nazorat qilish va tartibga solishda davlatning rolini baholashda yangicha yondashuvlar asosida ochib berilmagan.

O'zbekistonda iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashda sug'urta kompaniyalarining ahamiyatini yanada oshirish borasida muhim ustuvor vazifalar ishlab chiqilgan. Sug'urta bozorini tubdan isloh qilish, xalqaro standartlar va normalarni joriy etish, tartibga solish va prudensial nazoratning samarali mexanizmlarini qo'llash, yangi innovatsion sug'urta mahsulotlarini joriy etish orqali ko'rsatilayotgan sug'urta xizmatlari ko'lamini kengaytirish, sohada raqamli texnologiyalardan keng foydalanish va elektron sug'urta xizmatlarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Biroq hozirgi kunda milliy sug'urta bozorining ijobiy imijini shakllantirish va yuqori darajada ushlab turish hamda investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, shu jumladan, milliy sug'urta bozorini xalqaro va xorijiy sug'urta bozorlari bilan integratsiyalashuvini oshirish, sug'urta tashkilotlarining investitsion faoliyatini takomillashtirish masalalari yetarli darajada tadqiq etilmaganligi ushbu sohada keng qamrovli tadqiqot ishlarini olib borishni talab etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son ““O'zbekiston – 2030” Strategiyasi to'g'risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”, 2018-yil 1-avgustdagi PF-5495-son “O'zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmonlari, 2024-yil 1-martdagi PQ-108-son “Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirishning kompleks chora-tadbirlari to'g'risida”, 2019-yil 2-avgustdagi PQ-4412-sonli “O'zbekiston Respublikasining sug'urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida”, 2021-yil 23-oktyabrdagi PQ-5265-son “Sug'urta bozorini raqamlashtirish va hayot sug'urtasi sohasini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha

chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishda ma'lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Sug'urta kompaniyalari faoliyatining nazariy-metodologik asoslari va investitsion faoliyatini takomillashtirishning ba'zi masalalari mamlakatimiz va qator xorijiy tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida ko'rib chiqilgan. Jumladan, xorijiy olimlardan K.Pfayffer, D.Bland, G.Chernova, A.Artamonov, Y.Axvlediani, A.Fedorova, I.Balabanov, A.Balabanov, B.Rayzberg, L.Lofovskiy, Y.Starodubseva, Y.Razumovskaya, V.Fomenkolarning ilmiy izlanishlarida sug'urta kompaniyalarining investitsion faoliyati samaradorligini oshirish yo'nalishlari qisman tadqiq etilgan³.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar R.Azimov, T.Karimov, Sh.Imomov, X.Shennayev, Q.Qo'ldoshev, N.Qo'ziyeva, M.Xodjayeva, M.Askarova, T.Baymuratov, A.Nurullayev, S.Umarov, I.Abduraxmonov, X.Boyev, O.Yuldashev, I.Kenjayevar sug'urta kompaniyalari faoliyatini samarali tashkil etish va moliyaviy barqarorligini ta'minlashga doir ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan⁴.

³ Кристоф Пфайффер. Введение в перестрахование. Учебник. Кельнское перестраховочное общество, представительство в Москве, – М.: «Анkil», 2000. – 155 с., Дэвид Бланд. Страхование: принципы и практика. Учебник. – М.: «Финансы и статистика», 1998. – 192 с., Чернова Г.В. Страхование: экономика, организация, управление. Учебник. – М.: Экономика, 2010. – 751 с., Артамонов А.П. Практика непропорционального перестрахования. Учебное пособие. – М.: Издательский дом. «Страховое ревю», 2000. – 172 с., Ахвледiani Ю.Т. Страхование. Учебник. – М.: ЮНИТИ, 2010. – 415 с., Федорова Т.А. Страхование. Учебник. – М.: «Магистр», 2009. – 1006 с., Балабанов И.Т., Балабанов А.И. Страхование. Учебник. – СПб.: «Питер», 2002. – 256 с., Райзберг Б.А., Лозовский Б.А., Стародубцева Е.Б. Современный экономический словарь. – М.: «Инфра-М», 2006. – 495 с., Разумовская Е.А., Фоменко В.В. Страховое дело. Учебное пособие. – Е.: Гум.универс. – 2016. – 256 с.

⁴ Азимов Р.С. Иқтисодийни модернизациялаш шароитида рискларни суғурталаш методологиясини такомиллаштириш. и.ф.д. (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. Т.: ТМИ, 2022. Шеннаев Х.М. Ўзбекистон Республикасида суғурта фаолиятини ривожлантириш йўналишлари. И.ф.д. (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. Т.: ТМИ, 2021.; Қўлдошев Қ.М. Ўзбекистонда ўзаро суғурталашнинг методологик асосларини такомиллаштириш. И.ф.д. (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати, Т.: ТМИ, 2020. 36 б.; Қўзиева Н.Р. Хорижий инвестициялар иштирокидаги корхоналар фаолиятини рағбатлантиришнинг молия-кредит механизмини такомиллаштириш йўналишлари. и.ф.д. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати, Т.: БМА, 2008. 36 б.; Ходжаева М.Х. Суғурта фаолияти бухгалтерия ҳисоби ва аудитининг ҳозирги аҳволи ва уни